

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### **SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 17-noyabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 1, 3-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 12, 656-modda; 2007-yil, № 4, 158, 166-moddalar, № 6, 248-modda, № 9, 416, 422-moddalar, № 12, 607-modda; 2008-yil, № 4, 187, 188, 189-moddalar, № 7, 352-modda, № 9, 485, 487, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 128-modda, № 9, 329, 334, 335, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 5, 176, 179-moddalar, № 9, 341-modda, № 12, 471, 477-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430-modda, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 471-modda, № 9, 592-modda, № 11, 787-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 204-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, № 3, 217-modda, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 966, 968, 973-moddalar) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 184-modda:

nomidagi hamda birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlaridagi “boshqa majburiy to'lovlarni” degan so'zlar “yig'imlarni” degan so'z bilan almashtirilsin;

to'rtinchi va beshinchi qismlaridagi “boshqa majburiy to'lovlar” degan so'zlar “yig'imlar” degan so'z bilan almashtirilsin;

2) 188-moddaning ikkinchi qismidagi “boshqa majburiy to'lovlar” degan so'zlar “yig'imlar” degan so'z bilan almashtirilsin.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-

moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-modda, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi 17<sup>3</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**“17<sup>3</sup>-modda. Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun shaxslarning ma'muriy javobgarligi**

Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan, ushbu Kodeks 175-moddasining ikkinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxsning rahbari yoki yakka tartibdagi tadbirkor ma'muriy javobgarlikka tortiladi”;

2) 164-modda:

birinchi qismining **sanksiyasidagi** “bir baravaridan besh baravarigacha” va “besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda” degan so'zlar tegishincha “o'n baravari” hamda “yigirma baravari miqdorida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismining **sanksiyasidagi** “besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda” va “yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda” degan so'zlar tegishincha “yigirma besh baravari miqdorida” hamda “qirq baravari miqdorida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismining **sanksiyasidagi** “o'n baravaridan ellik baravarigacha” va “qirq baravaridan sakson baravarigacha miqdorda” degan so'zlar tegishincha “yetmish baravari” hamda “sakson baravari miqdorida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi yettinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun naqd pul mablag'lari bilan yoki plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar shakliga qarab, ularning narxlarini sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, —

bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi”;

**yettinchi qismi** sakkizinchi qism deb hisoblansin;

3) 166-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“166-modda. Tovarlarini (mahsulotlarini) ularning sifatini tasdiqlaydigan hujjatlarsiz sotish yoki majburiy ravishda raqamli markirovkalash qoidalarini buzish**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning oziq-ovqat mahsulotlarini va sanoat tovarlarini (mahsulotlarini) ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlaydigan hujjatlarsiz sotishi, xuddi shuningdek sotish maqsadida olish —

tovarlarini (mahsulotlarini) musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

tovarlarini (mahsulotlarini) musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovar belgisida ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan eri to'g'risida axborot mavjud bo'lmagan tovarlarni realizatsiya qilish, xuddi shuningdek realizatsiya qilish maqsadida olish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qonunchilikda majburiy raqamli markirovkalanishi belgilangan tovarlarni (mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi";

#### 4) 174-modda:

nomidagi "boshqa majburiy to'lovlarni" degan so'zlar "yig'implarni" degan so'z bilan almashtirilsin;

birinchi qismining **dispozitsiyasidagi** "boshqa majburiy to'lovlar" degan so'zlar "yig'implar" degan so'z bilan almashtirilsin;

birinchi qismining **sanksiyasidagi** "uch baravaridan besh baravarigacha" va "besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda" degan so'zlar tegishincha "o'n baravari" hamda "o'n besh baravari miqdorida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismining **sanksiyasidagi** "besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda" va "o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda" degan so'zlar tegishincha "yigirma baravari miqdorida" hamda "o'ttiz baravari miqdorida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

#### 5) 175-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

### **"175-modda. Soliq solish obyektlarining hisobini va hisobotini yuritishning belgilangan tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish**

Foyda (daromad) yoki boshqa soliq solish obyektlarining hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda yuritish, agar bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning yoki yig'implarning summasini kamaytirishga olib kelsa, shuningdek soliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etmaslik, xuddi shuningdek kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlarning asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaslik, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaslik —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

To'lov intizomini buzish, shu jumladan qarzdor korxonalaridan to'lovlarni undirish bo'yicha soliq organlarining inkasso topshiriqlarini bajarmaslik, korxonalarining hisobvaraqlarida tegishli mablag'lar mavjud bo'lgan holda to'lovlarni amalga oshirishning belgilangan muddatlarini buzish, shuningdek pul mablag'larini hisobdan chiqarish navbatini buzadigan harakatlarni amalga oshirish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliq organlarida hisobga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasiz korxonalar va tashkilotlarga hisob-kitob hisobvaraqlarini yoki boshqa hisobvaraqlarni ochish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini xizmat ko'rsatayotgan bankka soliq to'lovchi tomonidan taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o'lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash va soliq organlariga tegishli axborot berish bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni buzish —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

6) 175<sup>5</sup>-modda:

birinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi”;

ikkinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi”;

7) 176-moddaning **to'rtinchi qismidagi** “boshqa majburiy to'lovlar” degan so'zlar “yig'implar” degan so'z bilan almashtirilsin;

8) 245-moddaning:

**birinchi qismidagi** “174<sup>1</sup>, 175” raqamlari “174<sup>1</sup>-moddasida, 175-moddasining to'rtinchi qismida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

**uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) ularning xodimlari, yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslari va (yoki) boshqa xodimlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ham ko'rib chiqadi, bundan ushbu Kodeks 60-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 60<sup>1</sup>, 65, 68, 68<sup>1</sup>, 99-moddasida (qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasiga oid qismida), 175-moddasining birinchi, uchinchi va oltinchi qismlarida va 283-moddalarida nazarda tutilgan hollar mustasno”;

9) 264-moddaning **birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat soliq organlariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalariga ushbu Kodeks 159<sup>1</sup>, 168-moddasida, 174-moddasining uchinchi qismida, 215<sup>3</sup>-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. Ushbu Kodeks 175-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar davlat soliq organlariga taalluqlidir”;

10) 271-modda birinchi qismining **11-bandidagi** “175-moddasining birinchi va oltinchi qismlarida” degan so'zlar “175-moddasining birinchi, ikkinchi va beshinchi qismlarida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 283-moddaning **to'rtinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Transport vositasidan foydalangan holda yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto- va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan, shuningdek soliq yoki bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yoki Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali qayd etilgan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydi”;

12) 287-moddaning **8-bandidagi** “165<sup>1</sup>, 166, 170-moddalarida” degan so'zlar “165<sup>1</sup>-moddasida, 166-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 170-moddasida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) quyidagi mazmundagi 309<sup>3</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**“309<sup>3</sup>-modda. Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima solish to'g'risidagi qaror**

Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima solish to'g'risidagi qaror ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning ishtirokisiz chiqariladi.

Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima solish to'g'risidagi qaror elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi.

Jarima solish to'g'risidagi qaror soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini qo'llash orqali olingan materiallar ilova qilingan holda mazkur qaror chiqarilgan kundan e'tiboran uch kun ichida soliq to'lovchining (huquqbuzarning) shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima solish to'g'risidagi qarorda quyidagilar ko'rsatilishi kerak: qarorning raqami; qaror chiqarilgan sana va joy; qarorni chiqargan organning nomi, mansabdor shaxsning lavozimi hamda familiyasi, ismi, otasining ismi; soliq to'lovchining nomi va identifikatsiya raqami; ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar; ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, joy va huquqbuzarlikning tavsifi; ushbu Kodeks Maxsus qismining sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi; tayinlangan jarima va uni to'lash tartibi; jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi”.

**3-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi 474-I-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 9, 232-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda; 1999-yil, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 5, 89-modda, № 9-10, 182-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 5, 152-modda, № 9, 312-modda, № 12, 415-modda; 2006-yil, № 10, 536-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 12, 474-modda; 2010-yil, № 9, 336-modda; 2012-yil, № 4, 105-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 385-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 12, 773-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 166-modda, № 5, 267-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) [10-modda](#):

[birinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi”;

[uchinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bo'limlarining boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalaridagi ichki audit, shuningdek shaxsiy xavfsizlik bo'limlarining mansabdor shaxslari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i va boshliq o'rinbosarlari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo'limlarining boshliqlari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining shaxsiy xavfsizlik bo'limi mansabdor shaxslari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalarining boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisining buyrug'i bilan tayinlanadi”;

2) 15-moddaning [to'rtinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga davomiyligi yigirma to'rt ish kunidan iborat bo'lgan haq to'lanadigan har yilgi ta'tillar beriladi. Davlat soliq xizmati organlarining o'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan mansabdor shaxslariga davomiyligi besh ish kunidan, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan mansabdor shaxslariga esa davomiyligi o'n ish kunidan iborat bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'tillar berilishi mumkin. Bunda ta'tillar uchun haq to'lash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi 841-XII-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan O'RQ-573-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil № 10, 672-modda, 2021-yil № 1, 16-modda, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin: